
204-guruh o'quvchilari ishtirokida adabiyot fanidan ochiq dars o'tkazildi

Adabiyot, san'at va musiqa, shubhasiz, kishining aqliy, ijodiy va shaxsiy o'sishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham barcha ta'lim muassasalarida mazkur fanlarning samarali o'qitilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, SamDCHTI akademik litseyida ham turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, ochiq dars va mashg'ulotlar o'tkazib kelinmoqda. Jumladan **204-guruh o'quvchilari ishtirokida adabiyot fanidan o'tkazilgan qiziqarli ochiq dars, so'zimiz isbotidir.**

Fan doirasida o'tkazilgan mazkur darsda „**Zakovat charxpalagi**“, „**Tafakkur daraxtini jonlantiring**“, „**Blits so'rovnoma**“ kabi interfaol metodlardan foydalanildi. Shuningdek **Abdulla Oripovning "Jannatga yo'l " drammatik dostonida** savob va gunoh masalasi o'quvchilar tomonidan mahorat bilan sahnalashtirilganligi barchada o'zgacha taassurotlar qoldirdi va faol ishtirok etgan o'quvchilar akademik litsey ijrochi direktori Islomov Dilshodxon Umarovich tomonidan esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.









SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati